

**ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM/T.65.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI

ELBOYEVA MOXINUR IMOMNAZAR QIZI

**PbMoO₄, CaMoO₄, Bi₁₂GeO₂₀ VA Bi₁₂SiO₂₀ KRISTALLARIDA
AKUSTOOPTIK XOSSALARNING ANIZOTROPIYA
QONUNIYATLARI**

01.04.03- Molekulyar fizika va issiqlik fizikasi

**FIZIKA — MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Fizika - matematika fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
физико – математическим наукам**
**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on Physics and
mathematics sciences**

Elboyeva Moxinur Imomnazar qizi

PbMoO₄, CaMoO₄, Bi₁₂GeO₂₀ va Bi₁₂SiO₂₀ kristallarida akustooptik
xossalarning anizotropiya qonuniyatlari..... 5

Элбоева Мохинур Имомназар кизи

Закономерности анизотропии акустооптических свойств
кристаллов PbMoO₄, CaMoO₄, Bi₁₂GeO₂₀ и Bi₁₂SiO₂₀..... 23

Elboeva Mokhinur Imomnazar kizi

Regularities of anisotropy of acousto-optical properties of PbMoO₄,
CaMoO₄, Bi₁₂GeO₂₀ and Bi₁₂SiO₂₀ crystals..... 43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 45

**ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM/T.65.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI

ELBOYEVA MOXINUR IMOMNAZAR QIZI

**PbMoO₄, CaMoO₄, Bi₁₂GeO₂₀ VA Bi₁₂SiO₂₀ KRISTALLARIDA
AKUSTOOPTIK XOSSALARNING ANIZOTROPIYA
QONUNIYATLARI**

01.04.03- Molekulyar fizika va issiqlik fizikasi

**FIZIKA — MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/FM1121 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zR FA Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.iplt.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Axmedjanov Farxad Rashidovich

fizika - matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Baxramov Sagdulla Abdullaevich

fizika - matematika fanlari doktori, akademik

Qodirov Mo'min Qodirovich

fizika - matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O'zR FA Materialshunoslik instituti

Dissertatsiya himoyasi Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM/T.65.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «14» oktyabr soat 14:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 33-uy. Tel./faks: (+99871) 262-32-54, e-mail: info@iplt.uz, Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (15 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 33-uy. Tel./faks: (+99871) 262-31-69.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «2» oktyabr kuni tarqatildi.

(2025 yil «2» oktyabr dagi 15 raqamli reyestr bayonnomasi).



X.B. Ashurov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
t.f.d., professor

I.D. Yadgarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, f-m.f.d., professor

U.K. Maxmanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, f-m.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi vaqtda dunyoda qo‘rg‘oshin molibdati, kalsiy molibdati, vismut germanati va vismut silikati kristallari texnologiyada turli akustik va akustooptik qurilmalarda ishchi muhit sifatida keng qo‘llaniladi. Ushbu monokristallarning barchasi keng shaffoflik diapazoniga (0,35 - 6,0 mkm) va yetarlicha yuqori ikkilanma nur sindirshga xossasiga ega. Bu ularni akustik va akustooptik kechikish liniyalarida, akustooptik elektron sozlanish filtrlarida va boshqaruv konvertorlarida faol ishchi muhit sifatida ishlatishga imkon beradi. Shu bilan birga, bu kristallarning akustooptik xossalarning anizotropiyasi haligacha batafsil o‘rganilmagan.

Kristallarning ishchi kesimlari, qoida tariqasida, ikkinchi va undan yuqori tartibli simmetriya o‘qlariga perpendikulyar kesimlardir. Masalan, qo‘rg‘oshin molibdati kristallarida [001] o‘qi bo‘ylab (to‘rtinchi tartibli o‘qqa perpendikulyar yo‘nalish) tarqaladigan ko‘ndalang akustik to‘lqin anizotropik akustooptik o‘zaro ta‘sirga ega qurilmalar uchun zarur bo‘lgan katta akustooptik sifat ko‘rsatkichiga mos keladi. Kristallarning fotoelastik xossalarning anizotropiyasini o‘rganish noxizizli akustikaning ko‘plab muammolarini hal etishda muhim hisoblanadi. Bunday tadqiqotlar yangi avlod akustooptik qurilmalarini ishlab chiqishda zarur bo‘lgan ushbu kristallarning eng samarali kesimlarini aniqlash uchun muhimdir. Umuman olganda, bunday kristallardagi akustooptik xossalarning anizotropiyasi qonuniyatlari haqida fundamental bilimlarni olish shubhasiz, molekulyar fizika va issiqlik fizikasining dolzarb vazifasidir.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida materialshunoslik sohasidagi fundamental tadqiqotlarga – yangi materiallarni izlash va ma‘lum bo‘lgan materiallarning xossalarni, jumladan, kristallarning akustik va akustooptik xossalarni o‘rganishga mamlakat iqtisodiyotining turli tarmoqlarida katta e‘tibor qaratilmoqda. Shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti, Fizika-texnika instituti, Yadro fizikasi va Materialshunoslik institutlarida, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida, Samarqand davlat universiteti va respublikaning boshqa ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy o‘quv yurtlarida bunday tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu fundamental va amaliy tadqiqotlar yo‘nalishlari O‘zbekistonda ilm-fan va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, Prezident farmon va qarorlarida belgilab berilgan 2022–2026-yillarda yangi O‘zbekistonni rivojlantirish bo‘yicha strategiyada¹ o‘z ifodasini topgan Mazkur dissertatsiya ishida olib borilgan izlanishlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi (2022-yil 28-yanvardagi PF-60. PQ-3012-son). farmon va qarorlarida belgilangan vazifalarga ma‘lum darajada mos keladi.

Xuddi shunday vazifalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi “Fanlar akademiyasi faoliyatini, ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish,

¹2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.

boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2789-son qarorida hamda ushbu yo‘nalishda qabul qilingan boshqa me‘yoriy hujjatlarda ham nazarda tutilgan.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning PFI-2 – “Fizika, astronomiya, energetika va mashinasozlik” yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan. Dissertatsiya mavzusi 2018-2024 yillarga mo‘ljallangan fundamental va amaliy tadqiqotlar davlat ilmiy-texnik dasturlari bilan chambarchas bog‘liq.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyoning yetakchi olimlarining bir qator eksperimental va nazariy ishlari turli simmetriyali kristallarning akustooptik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Shuni ta’kidlash kerakki, olimlar J. Taker, V. Rampton G.A. Coquin, D.A. Pinnov, R.V. Dikson va M.G. Koen, (AQSh), E. Delesan va D. Royer (Fransiya), shuningdek, Britaniya olimi R.Nyunxem turli kristallarda, jumladan, tantalat va niobat litiy, qo‘rg‘oshin molibdati va vismut silikati kristallarida akustik va optik to‘lqinlarning keng chastotadagi o‘zaro ta’sirini o‘rgangan Rossiyalik olimlar V.I. Balakshiy, V.B. Voloshinov, Y.V. Gulyaev, V.V.Lemanov, V.V. Proklovlarning nazariy va eksperimental ishlarida tovush orqali yorug‘lik difraksiyasining ba’zi geometriyalari uchun turli simmetriyadagi kristallarning asosiy akustooptik xossalarini, shu jumladan fotoelastik konstantalarni o‘rgandi, vismut silikati va vismut germanati kristallarining bir qator akustooptik xossalarini Belarus olimlari (V.N. Bely., G.V.Kulak va boshqalar) va Ukraina olimlari (B.G. Mytsyk, A. Erba, N.M. Demyanishin) o‘rgandilar.

O‘zbekistonlik olimlar P.K. Habibullaev, S.Z. Mirzaev, Z.T. Azamatov, L.M. Sobirov, F.R. Axmedjanov, D.I. Semenov va boshqalar fizik akustika sohasidagi tadqiqotlarni rivojlantirishga katta hissa qo‘shdilar. Ular bir qator dielektrik va suyuq kristallar va binar eritmalarning akustik va akustooptik xossalarini ultratovush usullari va Bragg yorug‘lik difraksiyasi va Mandelshtam-Brilyuen sochilishi usullaridan foydalangan holda o‘rgandilar.

Shuningdek, qo‘rg‘oshin molibdati, kalsiy molibdati, vismut germanati va vismut silikati kristallarida akustooptik xossalarning anizotropiyasi batafsil o‘rganilmagan. Ushbu kristallarning akustooptik xossalarining anizotropiyasini bilish ularni akustooptik axborotni qayta ishlash qurilmalarida faol muhit sifatida ishlab chiqish va ishlatishda zarurdir.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutining “Ko‘p fazali tizimlar issiqlik fizikasi” laboratoriyasida 2021-2024 yillarga mo‘ljallangan “Dielektrik va segnetoelektrik kristallarida elastik, fotoelastik va superior xossalarining noxiziqli hodisalari, fazaviy o‘tishlari va anizotropiyasi” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qo‘rg‘oshin molibdati, kalsiy molibdati, vismut germanati va vismut silikati kristallarida akustooptik xossalarning anizotropiyasini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qo'rg'oshin va kalsiy molibdati hamda vismut germanati va silikati kristallarida barcha mustaqil elastik va fotoelastik konstantalar qiymatlarini yorug'likning akustik to'liqlarda Bragg difraksiyasi yordamida aniqlash;

qo'rg'oshin va kalsiy molibdati hamda vismut germanati va silikat kristallarida akustik to'liq tezligi va effektiv fotoelastik konstantalarning anizotropiyasini amaliy qo'llanilishi nuqtayi nazaridan eng muhim bo'lgan kristallografik tekisliklar uchun piezoelektrik effektning ta'sirini hisobga olgan holda tadqiq qilish;

tadqiqot kristallarida akustooptik sifat koeffitsiyentining yo'nalishga bog'liqligini aniqlash imkonini beruvchi effektiv fotoelastik konstantalar uchun ifodalarni hosil qilish;

PbMoO₄ kristallarida neodim qo'shimchasining akustooptik sifat koeffitsiyenti qiymati va anizotropiyasiga ta'sirini baholash;

vismut germanati va silikati kristallarida optik faollik hamda piezo va elektrooptik effektlarning akustooptik sifat koeffitsiyenti qiymati va anizotropiyasiga ta'sirini baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida qo'rg'oshin va kalsiy molibdati, vismut germanati va silikati kristallari olingan.

Tadqiqot predmeti bo'lib qo'rg'oshin molibdati, kalsiy molibdati, vismut germanati va vismut silikati kristallarining effektiv elastik va fotoelastik parametrlari hamda akustooptik sifat koeffitsiyentlarini to'liq vektoriga nisbatan o'zgarishi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni olib borishda kristallarning monokristalligini va kristall strukturaviy xususiyatlarini, o'lchamlarini aniqlash, deformatsiyalarni baholash va struktura haqida chuqur ma'lumot olish maqsadida rentgen diffraksiya (XRD) va Raman spektroskopiya analiz tekshiruvlari o'tkazildi. Kristallarda akustik to'liq tezligini aniqlash uchun akustooptik usul va materiallarning effektiv fotoelastik doimiylarini aniqlash uchun modifikatsiyalangan Dikson-Koen usuli qo'llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor qo'rg'oshin molibdati va kalsiy molibdati kristallarida (100) va (001) tekisliklarda tarqaluvchi akustik to'liqlar uchun effektiv elastik konstantalarning anizotropiyasi aniqlanib, ularning ushbu kristallarda akustooptik sifat koeffitsiyenti o'zgarishiga ta'siri o'rganildi;

kalsiy molibdati kristallarida sof ko'ndalang akustik to'liqlar bo'ylama normal yo'nalishlarda yorug'lik difraksiyasida akustooptik sifat koeffitsiyenti M_2 ning maksimal qiymati ($12 \cdot 10^{-15} \text{s}^3/\text{kg}$) bo'ylama to'liqlardagi ($2 \cdot 10^{-15} \text{s}^3/\text{kg}$) difraksiyaga nisbatan 6 marta kattaligi aniqlanib, bu qiymat PbMoO₄ va TeO₂ kabi yuqori akustooptik sifatga ega kristallarning qiymati bilan taqqoslanishi mumkinligi ko'rsatildi;

ilk bor vismut germanati va vismut silikati kristallarida piezo- va elektrooptik effektlar hamda optik faollik hissasini hisobga olgan holda effektiv fotoelastik konstantalar va akustooptik sifat koeffitsiyentini aniqlash uchun tenglamalar olindi;

qo'rg'oshin molibdati kristallarida neodim qo'shimchasi mavjud bo'lganda effektiv fotoelastik konstantaning 1,5 martaga kamayishi kuzatilib, bu PbMoO₄

kristall panjarasida neodim ionlarining yuqori harakatchanligi akustik to‘lqin va yorug‘lik o‘zaro ta‘sirida fotoelastik effektini qisman kamaytirishi bilan izohlandi;

vismut germanati va vismut silikati kristallarida piezo- va elektrooptik effektlar hamda optik faollikni inobatga olish natijasida akustooptik sifat koeffitsiyenti M_2 ning maksimal qiymatlari kuzatiladigan yo‘nalishlar aniqlanib, ular [110] o‘qiga nisbatan perpendikulyar qutblanish uchun 20^0 va parallel qutblanish uchun 160^0 burchaklarda joylashishi aniqlandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qo‘rg‘oshin va kalsiy molibdati, vismut germanati va silikati kristallarining fotoelastik konstantalarining olingan qiymatlari ushbu kristallardagi akustooptik sifat koeffitsiyentining maksimal yo‘nalishlarini aniqlashga, bo‘ylama va ko‘ndalang akustik to‘lqinlarda Bragg yorug‘lik diffraksiyasining samaradorligini oshirishga imkon beradi. Tadqiq etilgan kristallarda akustooptik sifat koeffitsiyentining o‘zgarishida topilgan qonuniyatlardan optimal geometriyani tanlash orqali akustooptik qurilmalarda diffraksiyalangan yorug‘lik intensivligini oshirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi kristallardagi akustik to‘lqinlar bilan optik to‘lqinlarning o‘zaro ta‘sirini o‘rganish uchun akustik va akustooptik usullarni qo‘llash, ko‘plab eksperimental natijalar va ularning kondensirlangan holatlar fizikasining asosiy qonunlari va tamoyillariga muvofiqligi hamda olingan natijalar boshqa mualliflarning eksperimental ma‘lumotlari bilan uyg‘unligi bilan ta‘minlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, kalsiy molibdat kristallarida sof ko‘ndalang akustik to‘lqinlarda yorug‘lik diffraksiyasi sodir bo‘lganda, akustooptik sifat koeffitsiyenti M_2 ning qiymati bo‘ylama akustik to‘lqinlarda kuzatiladigan qiymatga nisbatan bir tartib yuqori ekanligi ilk bor isbotlandi. Shuningdek, vismut germanati va silikati kristallarida akustik to‘lqinlarning tarqalish yo‘nalishiga bog‘liq holda akustooptik sifat koeffitsiyentining o‘zgarish qonuniyati ilk bor aniqlandi. Ushbu tahlilda piezo- va elektrooptik effektlarning umumiy hissasi hisobga olinib, ularning akustooptik o‘zaro ta‘sirga ta‘siri baholandi.

Ushbu dissertatsiya ishidagi tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, qo‘rg‘oshin molibdati va kalsiy molibdati kristallarida akustooptik sifat koeffitsiyenti hamda effektiv fotoelastik konstantalarning akustik to‘lqinlarning tarqalish yo‘nalishiga bog‘liq holda o‘zgarish qonuniyatlari o‘rganildi. Ushbu natijalar asosida mazkur kristallarning akustooptik qurilmalarda, jumladan, yuqori samarali optik filtrlar, modulyatorlar va deflektorlarda qo‘llanilish doirasi kengaymoqda. Bundan tashqari, tadqiq qilingan kristallarning fotoelastiklik tenzori komponentlari uchun aniqlangan qiymatlar ushbu materiallar asosida ishlab chiqiladigan zamonaviy akustooptik qurilmalar konstruksiyasini optimallashtirishda fundamental ma‘lumotlar bazasi sifatida foydalanish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qo‘rg‘oshin molibdati, kalsiy molibdati, vismut germanati va vismut silikati kristallarida akustooptik xossalarning anizotropiya qonuniyatlari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti fizika fakultetining Fotonika kafedrasida amalga oshirilgan “Metall oksidlari bilan legirlangan silikatlarining termoelektrik xossalari va o‘z-o‘zidan tashkil bo‘lish jarayonlari” mavzusidagi UZB-Ind-2021-78 amaliy loyihasini amalga oshirishda piezo va elektrooptik effektlarning ulushi hamda vismut silikati kristallaridagi fotoelastiklik tenzorining komponentlaridan foydalanilgan. (O‘zbekiston Milliy universiteti 12.03.2025 y. 01/11 – 3541-sonli xat). Natijalardan foydalanish legirlangan silikatlarining optik va piezoelektrik xossalari mexanik ta’sir ostida qanday o‘zgarishini tushuntirish imkonini bergan;

qo‘rg‘oshin molibdati kristallaridagi akustooptik o‘zaro ta’sirning anizotropiyasini o‘rganish natijasida olingan dissertatsiya ishi natijalarining nazariy qismidan Vuhan universiteti Texnologik fanlar institutining Fundamental tadqiqot jamg‘armasi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan № 413100036 loyiha doirasida foydalanilgan (Xitoy, Vuhan universiteti, Vuhan shahri, 2024 yil 18 noyabrdagi xat). Natijalar tetragonal va kubik singoniyali kristallarda samarali kesimlarni topish va akustik to‘lqinlar ta’sirida Bragg difraksiyasini tavsiflash imkonini bergan;

“Ultrasonics” jurnalidagi nashr etilgan natijalarimiz xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ilmiy tadqiqotlarida (Optical Materials 2024, Vol. 148, 114880; Optical Materials 2024, Vol. 157, part 2, 116320; RENSIT: Radioelectronics. Nanosystems. Information Technologies 2024, Vol.16, No.7, p. 837-846.) akustooptik o‘zaro ta’sir asosida Ammoniy floroberilat kristallarida piezooptik va elastooptik ta’sirlarni, Rb_2SO_4 kristallarining piezo-optik xususiyatlarini, kremniyning to‘lqin o‘tkazgich mikrotuzilmalariga akustik ta’sirlarni hisoblash kabi tadqiqot ishlarida natijalarini tushuntirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya bo‘yicha olingan asosiy natijalar 6 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda ma’ruza qilinib, muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 23 ta ilmiy ish chop etilgan, bulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy nashrlarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta, shu jumladan 2 ta ilmiy maqola Scopus ma’lumotlar bazasida indekslangan jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 112 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi yoritilib, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlari bilan bog‘liqligi hamda muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan. Tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqotning ob'ekti, predmeti va usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi ko‘rsatilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amalga

oshirish va ishning sinovdan o'tkazilishi, shuningdek, dissertatsiya hajmi va tuzilishi haqida ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning "**PbMoO₄, CaMoO₄, Bi₁₂GeO₂₀, Bi₁₂SiO₂₀ kristallarining akustik va akustooptik xossalariга oid nazariy va eksperimental tadqiqotlar**" deb nomlangan birinchi bobida akustik to'liqlarning kristallarda tarqalishi va ularning optik to'liqlar bilan o'zaro ta'siri haqida asosiy nazariy va eksperimental tadqiqotlar to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Bobning birinchi qismida uchta akustik to'liqlarning faza tezligining fazoviy dispersiyasini va ularning qutblanishini aniqlaydigan Grin-Kristoffel tenglamalari muhokama qilinadi. Piezoelektrik kristallarda piezoelektrik effekt akustik to'liqlarning tarqalish tezligini oshirishi ko'rsatilgan. Sof bo'ylama va sof ko'ndalang to'liqlar tarqaladigan yo'nalishlarni topish uchun umumiy usul ko'rsatilgan. Umumiy holatda akustik to'liqdagi energiya oqimining yo'nalishi uning tarqalish yo'nalishiga to'g'ri kelmasligi ko'rsatilgan.

Ikkinchi qismida akustik to'liqlar ta'sirida yorug'lik difraksiyasi nazariyasining asosiy tamoyillari keltirilgan, Raman-Nath va Bragg rejimlarida difraksiya shartlari va xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Anizotrop muhit uchun Pockels nazariyasi o'rniga fotoelastik effektning umumlashirilgan nazariyasidan foydalanish zarurligi ko'rsatilgan. Unga ko'ra fotoelastik konstantalarga qo'shimcha hissalarini asosiy qism bilan solishtirish mumkin.

Uchinchi qismida yorug'likning akustik to'liqlardagi Bragg difraksiyasi nazariyasining asosiy qoidalari keltirilgan va uning xususiyatlari ko'rsatilgan. Bragg yorug'lik difraksiyasining samaradorligini tavsiflovchi parametr Dikson tomonidan kiritilgan M₂ akustooptik sifat koeffitsiyenti bo'lib, u quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$M_2 = \frac{n^6 p_{\text{eff}}^2}{\rho V^3} \quad (1)$$

To'rtinchi qismida qo'rg'oshin molibdati, kalsiy molibdati, vismut germanati va vismut silikati, kristallari bo'yicha nashr etilgan eksperimental ishlar ko'rib chiqiladi. ularda akustooptik xossalarga oid ko'plab nashrlar bo'lishiga qaramay, bu xossalarning anizotropiyasi amalda o'rganilmagan.

"PbMoO₄, CaMoO₄, Bi₁₂GeO₂₀ va Bi₁₂SiO₂₀ kristallarning akustooptik, strukturaviy xususiyatlari tadqiqi usullari va qurilmalari" deb nomlangan ikkinchi bobda qo'rg'oshin molibdati, kalsiy molibdati va vismut germanati, vismut silikati, kristallarining elastik va fotoelastik xossalari o'rganish uchun foydalanilgan usullar va o'lchash moslamalari muhokama qilingan.

Bobning birinchi qismida kristallarni o'rganishning akustooptik usullari va ularning turli chastota diapazonlarida qo'llanilishi muhokama qilinadi. Raman-Nath va Bragg rejimlarida yorug'lik difraksiyasining shartlari va xususiyatlari keltirilgan.


Ikkinchi qismida Bragg yorug'lik difraksiyasi va akustooptik o'lchash tizimiga asoslangan akustooptik tadqiqot usuli muhokama qilinadi. v chastotali akustik to'liqlarning tarqalish tezligi quyidagi munosabat orqali aniqlanadi:

$$\sin \theta_B = \frac{\lambda_0 \cdot \nu}{2 \cdot V}, \quad (2)$$

bu yerda θ_B - goniometr yordamida o'lchanadigan, namuna qo'yilgan aylanish bosqichida o'lchanadigan Bragg yorug'lik difraksiyasining tashqi burchagi.

Uchinchi qismda akustik to'lqin piezoelektrik transduserlar tomonidan navbatma-navbat qo'zg'atilganda, avval standart tomondan, so'ngra sinov namunasi tomonidan o'zgartirilgan Dikson-Koen usuli yordamida effektiv fotoelastik konstantalarni aniqlash tavsiflanadi. Standart sifatida kvarts namunasi ishlatilgan.

Tadqiqotning metod sxemasi 1-rasmda ko'rsatilgan.



1-rasm. o'zgartirilgan Dikson-Koen usuli yordamida effektiv fotoelastik konstantalarni aniqlash sxemasi

1-rasmda quyidagi belgilar qo'llaniladi: 1 – etalon, 2 - o'rganilayotgan namuna, 3 - piezoelektrik o'zgartirgich, q - akustik to'lqinning to'lqin vektori, k_1 va k_2 - mos ravishda tushgan va difraksiyalangan yorug'lik to'lqin vektorlari, I_0 - tushgan yorug'likning intensivligi. Dastlab standart tomondan akustik to'lqin qo'zg'atiladi va standart I_{1s} va I_{1x} namunada difraksiyalangan yorug'lik intensivligi o'lchanadi. Keyin akustik to'lqin namuna tomondan qo'zg'atiladi va I_{2x} namunadagi va I_{2s} standartdagi yorug'lik intensivligi o'lchanadi. Effektiv fotoelastik konstantalar quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$\left[\frac{p_{eff}^2 n^6}{\rho V^3} \frac{n^2}{(n+1)^4} \right]_X = \left[\frac{p_{eff}^2 n^6}{\rho V^3} \frac{n^2}{(n+1)^4} \right]_S \left(\frac{I_{1x} I_{2x}}{I_{1s} I_{2s}} \right)^{\frac{1}{2}} \quad (3)$$

bu yerda ρ - kristallning zichligi; n – nur sindirish ko'rsatkichi. (3) ifodada "s" va "x" belgilari mos ravishda etalon va sinov namunalarining xususiyatlarini ko'rsatadi. effektiv fotoelastik konstantani aniqlashning xatoligi taxminan 20% ni tashkil etdi.

Ikkinchi bobning to'rtinchi qismida tadqiqot namunalarining umumiy xarakteristikalar va eksperimental metodologiya ko'rib chiqiladi. Parallelepiped ko'rinishidagi namunalar uzun tomonlari bilan [100], [001] va [110] kristallofizik yo'nalishlar bo'yicha 1 daraja aniqlikda va o'lchamlari 1-2 sm oraliqda. Namunalardagi bo'ylama va ko'ndalang akustik to'lqinlar 30 dan 50 MHzgacha bo'lgan chastotali, mos ravishda X va Y-kesimli piezoelektrik kvarts transduserlari tomonidan qo'zg'atilgan.

"Qo'rg'oshin molibdati va kalsiy molibdati kristallarining akustooptik xossalari anizotropiyasi" nomli uchinchi bobning birinchi bo'limida qo'rg'oshin molibdati, kalsiy molibdati, vismut silikati va vismut germanati namunalarida rentgenostrukturaliy tahlil hamda Raman spektroskopiyasi usullari yordamida tekshiruv o'tkazilgan. Ushbu tadqiqot ularning kristall panjarasi

parametrlari va aralashmalar yoʻqligini aniqlash maqsadida amalga oshirilgan. Olingan natijalar kristallarning yuqori sifatga ega ekanligini va fazaviy sofliqini tasdiqlagan.

Ikkinchi boʻlimda qoʻrgʻoshin molibdati kristallarining elastik va fotoelastik xossalari anizotropiyasini oʻlchash natijalari keltirilgan. Akustik toʻlqinlar tezligi va yorugʻlik difraksiyasi munosabatining turli geometriyalari uchun difraksiyalangan yorugʻlik intensivligi (3) dan qoʻrgʻoshin molibdati kristallarida effektiv fotoelastik konstantalar aniqlandi. (1) ifoda va akustik toʻlqinlar tezligining qiymatlari, shuningdek zichlik va nur sindirish koʻrsatkichlari boʻyicha adabiyot maʼlumotlaridan foydalanib, oʻrganilayotgan Bragg difraksiya geometriyalari uchun M_2 ning qiymatlari aniqlandi. Ushbu omilning anizotropiyasini aniqlash uchun akustik toʻlqin qutblanish vektorining tarkibiy qismlarini bilish kerak. Ushbu muammoni hal qilish uchun Green-Kristoffel algebraik tenglama tizimidan foydalanish mumkin:

$$(\Gamma_{ik} - \rho V^2 \delta_{ik}) \gamma_k = 0 \quad (4)$$

bu yerda δ_{ik} – Kroneker tenzorining komponentlari, Γ_{ik} – Green-Kristoffel tenzorining komponentlari, ular elastik konstantalar tenzorining birlik toʻlqin normal γ yoʻnalish kosinuslariga nisbatan konvolyutsiyalari:


$$\Gamma_{ik} = c_{ijkl} \kappa_j \kappa_l \quad (5)$$

PbMoO₄ kristallari (simmetriya guruhi 4/m) yettita mustaqil elastik konstantaga ega. Bular c_{11} , c_{12} , c_{13} , c_{16} , c_{33} , c_{44} va c_{66} kabi matritsa shaklida yozilishi mumkin. (001) tekislikda akustik toʻlqinning tarqalish yoʻnalishi va [100] oʻqi orasidagi φ burchagi bilan ifodalanishi mumkin. U holda, yoʻnalish kosinuslari $\kappa_1 = \cos\varphi$, $\kappa_2 = \sin\varphi$, $\kappa_3 = 0$, koʻrinishga ega boʻlib, Grin-Kristoffel tenzorining komponentlari (6) ifoda orqali hisoblangan. Hisoblashda quyidagi adabiyot qiymatlardan foydalanilgan: zichlik $6,95 \cdot 10^3$ kg/m³, elastik konstantalar $c_{11} = 10,9 \cdot 10^{10}$ N/m², $c_{12} = 6,83 \cdot 10^{10}$ N/m², $c_{13} = 5,28 \cdot 10^{10}$ N/m², $c_{16} = 1,36 \cdot 10^{10}$ N/m², $c_{33} = 9,17 \cdot 10^{10}$ N/m², $c_{44} = 2,67 \cdot 10^{10}$ N/m² va $c_{66} = 3,37 \cdot 10^{10}$ N/m². Boʻylama toʻlqinlar tezligi va (4) tenglamalar qiymatlaridan foydalanib, polarizatsiya vektorining tarkibiy qismlarini va bu vektorning [100] oʻqiga nisbatan orientatsiya burchagini (001) tekislikda aniqlash mumkin:

$$\psi = \arctg \frac{\gamma_2}{\gamma_1} = \arctg \left(\frac{\rho V^2 - \Gamma_{11}}{\Gamma_{12}} \right) \quad (6)$$

Polarizatsiya vektorining toʻlqin vektori yoʻnalishidan ogʻishi koʻrinishidagi hisoblash natijalari 2-rasmda keltirilgan. Olingan maʼlumotlar asosida PbMoO₄ ning fotoelastik konstantalari aniqlandi: $p_{11} = p_{22} = p_{12} = p_{21} = 0.26$, $p_{33} = 0.29$, $p_{44} = p_{55} = 0.075$, $p_{66} = 0.042$, $p_{13} = p_{23} = 0.27$, $p_{31} = p_{32} = 0.18$, $p_{16} = 0.022$, $p_{61} = 0.015$. Ushbu qiymatlar akustooptik sifat koʻrsatkichining PbMoO₄ kristallaridagi (001) tekislikdagi boʻylama akustik toʻlqinlarning toʻlqin vektori yoʻnalishiga bogʻliqligini hisoblash uchun ishlatilgan. Hisoblash natijalari 2(b)-rasmda koʻrsatilgan. Koʻrinib turibdiki, M_2 koeffitsiyentining eng katta anizotropiyasi (001) tekislikda tarqaladigan akustik toʻlqinlarning toʻlqin vektoriga perpendikulyar qutblanish bilan yorugʻlik

difraksiyasida kuzatiladi. Bunday holda, akustik to‘lqin faqat bo‘ylama bo‘lgan yo‘nalishlar uchun akustooptik sifat ko‘effitsiyentining eng katta va eng kichik qiymatlari kuzatiladi.



a)

b)

2-rasm. PbMoO_4 kristallarida (001) tekislikda bo‘ylama akustik to‘lqinlar qutblanish yo‘nalishining to‘lqin vektori yo‘nalishidan og‘ishi (a). M_2 ko‘effitsiyentining yorug‘lik tovush to‘lqin vektoriga parallel (1) yoki perpendikulyar (2) qutblanganda (001) tekislikdagi bo‘ylama akustik to‘lqin vektori yo‘nalishiga bog‘liqligi (b).

Xususan, ko‘rib chiqilayotgan tekislikda M_2 ko‘effitsiyentining maksimal qiymati $[100]$ o‘qiga 74° va 164° burchaklardagi yo‘nalishlar uchun $34.7 \cdot 10^{-15} \text{ s}^3/\text{kg}$ ni tashkil qiladi. Bu akustooptik qurilmalarda ishlatiladigan kristallardagi M_2 ko‘effitsiyentning maksimal qiymatlardan biridir.

Uchinchi bobning uchinchi qismi 0,2 mol% neodim qo‘shimchasining qo‘rg‘oshin molibdati kristallarining akustooptik xossalariga ta‘sirini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ushbu kristallarda $[100]$ va $[001]$ yo‘nalishlar bo‘ylab tarqaluvchi bo‘ylama akustik to‘lqinlarda Bragg difraksiyasi samaradorligining anizotropiyasi tadqiq etilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, neodim bilan legirlangan qo‘rg‘oshin molibdati kristallarida p_{eff} va M_2 ko‘effitsiyentlari akustik to‘lqinlarning tarqalish yo‘nalishi hamda yorug‘lik va akustik to‘lqin polarizatsiyasiga bog‘liq holda o‘zgargan.


1-jadval

Sof va Nd (0,2 mol%) aralashmali PbMoO_4 kristallarining fotoelastik konstantalari va akustooptik sifat ko‘effitsiyentlari ($\lambda_0=632.8 \text{ nm}$)

Kristall	q	γ	β	p_{eff}	$M_2, 10^{-15} \text{ s}^3/\text{kg}$
PbMoO_4	$[100]$	$[0.98 \ 0.18 \ 0]$	$[001]$	0.18	9.5
	$[100]$	$[0.98 \ 0.18 \ 0]$	$[100]$	0.26	27.3
	$[001]$	$[001]$	$[100]$	0.27	38.8
	$[001]$	$[001]$	$[001]$	0.29	32.5
$\text{PbMoO}_4:0.2 \text{ Nd}$	$[100]$	$[0.98 \ 0.18 \ 0]$	$[001]$	0,12	4.4
	$[100]$	$[0.98 \ 0.18 \ 0]$	$[100]$	0,19	15.2
	$[001]$	$[001]$	$[100]$	0,21	22.9
	$[001]$	$[001]$	$[001]$	0.24	21.7

Toza va legirlangan PbMoO_4 namunalarida turli yo‘nalishlar va yorug‘lik hamda akustik to‘lqinlarning polarizatsiyalari uchun diffraksiyalangan yorug‘lik intensivligi

qiymatlariga asoslanib, effektiv fotoelastik konstantalar p_{eff} va M_2 sifat ko'effitsiyenti hisoblab chiqilgan. Hisoblash natijalari 1-jadvalda keltirilgan. To'liq vektorlari \mathbf{q} va \mathbf{k} akustik va yorug'lik to'liqlarining tarqalish yo'nalishini, \mathbf{E}_0 tushayotgan yorug'likning qutblanish yo'nalishini ko'rsatadi. 1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, neodim qo'shimchasi kiritilgan PbMoO_4 kristallarida effektiv fotoelastik konstanta va akustooptik sifat ko'effitsiyentini akustik to'liqning tarqalish yo'nalishiga va tushayotgan yorug'likning qutblanishiga kuchli bog'liqdir. [100] yo'nalish bo'ylab bo'ylama akustik to'liqlarda yorug'likning difraksiyasi uchun M_2 ko'effitsiyentining yorug'lik polarizatsiyasi yo'nalishiga bog'liqligi 3-rasmda keltirilgan. Ko'rinib turibdiki, hisoblangan qiymatlar eksperimental qiymatlarga yaxshi mos keladi. Shunday qilib, tushayotgan yorug'likning qutblanish yo'nalishini o'zgartirish orqali Bragg yorug'lik difraksiyasining samaradorligini boshqarish imkoniyati ko'rsatilgan.



3-rasm. $\text{PbMo}_4:0,2\text{Nd}$ kristallarida [100] bo'ylab bo'ylama akustik to'liqlarda yorug'likning Bragg difraksiyasida M_2 ning yorug'lik polarizatsiyasi yo'nalishiga bog'liqligi. Egri chiziq – nazariy hisoblash, nuqtalar – tajriba natijalari.

Uchinchi bobning to'rtinchi qismida (001) tekislikda tarqaladigan bo'ylama va ko'ndalang akustik to'liqlar orqali Bragg yorug'lik difraksiyasida kalsiy molibdati kristallarining elastik va fotoelastik xossalari anizotropiyasini o'rganish natijalari keltirilgan. Akustik to'liqlarning tezligini aniqlash natijalari V va effektiv fotoelastik konstantalar p_{eff} 2-jadvalda keltirilgan bo'lib, unda \mathbf{q} va γ vektorlari mos ravishda to'liq vektori va akustik to'liqlarning qutblanish yo'nalishlarini ko'rsatadi.

2-jadval

CaMoO_4 kristallarida akustik to'liqlarning tezligi, effektiv fotoelastik konstantalar va akustooptik sifat ko'rsatkichi

\mathbf{q}	γ	$V, 10^3 \text{ m/s}$	P_{eff}	$M_2, 10^{-15} \text{ s}^3/\text{kg}$
[100]	[100]	5.87	$(p_{11}^2 + p_{61}^2)^{1/2} = 0.20$	2.92
	[001]	2.71	$p_{44} = 0.06$	2.67
[001]	[001]	5.44	$p_{33} = 0.08$	0.59
	[100]	2.99	$(p_{44}^2 + p_{45}^2)^{1/2} = 0.086$	4.08
[010]	[010]	5.87	$(p_{11}^2 + p_{61}^2)^{1/2} = 0.20$	2.92
	[001]	2.71	$p_{44} = 0.06$	2.67
[110]	[110]	5.98	$(p_{11} + p_{12})/2 + p_{66} = 0.036$	0.09
	[001]	2.97	$p_{61} = 0.1$	5.62


Yorug'lik vektori doimo [001] o'qiga va yorug'likning qutblanish vektori akustik to'liq vektori \mathbf{q} ga parallel yo'nalgan. 2-jadvaldan ko'rinadiki, Bragg yorug'lik difraksiyasining ba'zi geometriyalari uchun effektiv fotoelastik doimiy p_{11} , p_{33} , p_{44} ,

p_{61} kabi fotoelastiklik tenzorining komponentlaridan biri bilan mos keladi. Ushbu komponentlardan, shuningdek, jadvalda keltirilgan akustik to‘lqinlar tezligining nisbati va qiymatlaridan foydalanib, kalsiy molibdati kristallarining elastik va fotoelastik konstantalarining quyidagi qiymatlari aniqlandi: $c_{11}=14,4 \cdot 10^{10} \text{ N/m}^2$, $c_{12}=6,5 \cdot 10^{10} \text{ N/m}^2$, $c_{13}=4,5 \cdot 10^{10} \text{ N/m}^2$, $c_{16}=1,4 \cdot 10^{10} \text{ N/m}^2$, $c_{33}=12,6 \cdot 10^{10} \text{ N/m}^2$, $c_{44}=3,69 \cdot 10^{10} \text{ N/m}^2$, $c_{66}=4,61 \cdot 10^{10} \text{ N/m}^2$, $p_{11}=0.17$, $p_{12}=-0.15$, $p_{33}=0.08$, $p_{44}=0.06$, $p_{45}=0.062$, $p_{61}=0.1$, $p_{66}=0.026$.

Hisoblash uchun qo‘shimcha qiymatlar adabiyotlardan olingan. Olingan qiymatlar (001) tekislikda bo‘ylama akustik to‘lqinlarning tarqalish yo‘nalishi o‘zgarganda, kalsiy molibdati kristallaridagi effektiv elastik konstantaning anizotropiyasini va akustooptik sifat koeffitsiyentini aniqlash uchun ishlatilgan.

Bo‘ylama akustik to‘lqinlar (001) tekislik bo‘ylab tarqalganda effektiv elastik va fotoelastik konstantalar hamda ularning anizotropiyasini aniqlash maqsadida Grin-Kristoffel tenglamalar tizimi (4) orqali ushbu to‘lqinlarning polarizatsiya vektori komponentlari γ_k hisoblab chiqildi. Natijada, CaMoO_4 kristallarida (001) tekislik bo‘ylab bo‘ylama to‘lqinlar uchun tezlik va effektiv elastik konstanta yo‘nalishga bog‘liqligi aniqlandi. Ushbu tekislikdagi effektiv elastik konstantaning fazoviy anizotropiyasi 4(a)-rasmدا taqdim etilgan.


Ko‘rinib turibdiki, c_{eff} ning maksimal qiymati $[100]$ o‘qiga 26° va 116° burchaklar ostida tarqaluvchi bo‘ylama akustik to‘lqinlar uchun kuzatilib, u $16.1 \cdot 10^{10} \text{ N/m}^2$ ga teng. Umuman olganda, ushbu akustik to‘lqinlar uchun tezlik va effektiv elastik konstantaning anizotropiyasi nisbatan kichik bo‘lib, 20% dan oshmaydi. Bundan tashqari, (1) va (3) ifodalaridan foydalangan holda, bo‘ylama akustik to‘lqinlarda yorug‘lik difraksiyasi uchun M_2 akustooptik sifat koeffitsiyentining anizotropiyasi hisoblab chiqildi. Olingan nisbiy birliklardagi bog‘liqliklar 4(b)-rasmدا taqdim etilgan.



4-rasm. Effektiv elastik konstanta (a) va akustooptik sifat koeffitsiyenti M_2 (b) ning CaMoO_4 kristallaridagi (001) tekislikdagi bo‘ylama akustik to‘lqinning to‘lqin vektori yo‘nalishiga bog‘liqligi.

4b-rasmда M_2 koeffitsiyenti bo‘ylama akustik to‘lqinlarning to‘lqin vektori $[100]$ o‘qiga 5 va 95 gradus burchaklarda yo‘naltirilganda (001) tekislikda eng katta qiymatga yetadi. Bunday holda, M_2 koeffitsiyentining qiymati $2.92 \cdot 10^{-15} \text{ s}^3/\text{kg}$ ni tashkil qiladi, bu qo‘rg‘oshin molibdati kristallarida ushbu koeffitsiyentning maksimal qiymatlaridan sezilarli darajada past.

Berilgan tekislikdagi ko'ndalang akustik to'lqinlar uchun effektiv elastik doimiy c_{eff} ning to'lqin vektori yo'nalishiga bog'liqligini hisoblash natijalari 5(a) rasmda keltirilgan.



a)

b)

5-rasm. CaMoO₄ kristallarida (001) tekislikdagi effektiv elastik konstantaning to'lqin vektori yo'nalishiga bog'liqligi (a) va ko'ndalang (1) va bo'ylama (2) akustik to'lqinlar uchun akustooptik sifat koeffitsiyenti to'lqin vektori yo'nalishiga bog'liqligi (b).

Yuqorida olingan natijalar va (4) va (5) ifodalardan foydalanib, yorug'likning ko'ndalang akustik to'lqinlarda diffraksiyasida bir xil tekislikdagi akustooptik sifat koeffitsiyentining anizotropiyasi hisoblangan. Natijalar 5b-rasmda keltirilgan bo'lib, bu yerda bo'ylama to'lqinlarda yorug'lik diffraksiyasi holatidagi anizotropiya taqqoslash uchun ko'rsatilgan. 5a-rasmdan ko'rinib turibdiki, ko'ndalang to'lqinlar uchun akustik to'lqin bo'ylama normalar bo'ylab tarqalganda, sof ko'ndalang to'lqinda, c_{eff} o'zining maksimal yoki minimal qiymatiga yetadi. Bundan tashqari, bu qiymatlar mos ravishda $5.58 \cdot 10^{10} \text{N/m}^2$ va $2.85 \cdot 10^{10} \text{N/m}^2$ ga teng. 6b-rasmda yorug'likning ko'ndalang to'lqinlar bilan difraksiyasi uchun M_2 akustooptik sifat koeffitsiyentining maksimal qiymati bo'ylama to'lqinlar bilan difraksiyaga nisbatan 6 martadan ortiqligini sezish mumkin. Bunday holda, M_2 ning eng katta qiymatlari ko'ndalang akustik to'lqinlarning to'lqin vektori yo'nalishi bo'yicha, (001) tekislikdagi [100] o'qiga taxminan 30 va 120 gradus burchaklarda sodir bo'ladi. Bu kristaldagi bo'ylama normalarning yo'nalishlaridir.

"Vismut germanati va vismut silikati kristallarining akustooptik xossalari anizotropiyasi" nomli to'rtinchi bobning birinchi bo'limida piezo va elektrooptik effektning ta'sirida markaziy simmetrik bo'lmagan kristallardagi akustooptik o'zaro ta'sir xossalari ko'rib chiqish natijalari xususan, vismut germanati va silikati kristallari uchun keltirilgan. Markaziy simmetriyaga ega bo'lmagan kristallar piezoelektrik ta'sirga ega va piezoaktiv akustik to'lqin natijasida yuzaga keladigan deformatsiya ta'sirida ularda elektr maydoni paydo bo'lishi mumkin:

$$E_n = - \frac{e_{mkl} \kappa_m \kappa_l}{\varepsilon_{mn} \kappa_m \kappa_n} u_{kn}, \quad (7)$$

bu yerda κ_m - akustik to'lqinning to'lqin vektorining yo'nalish kosinuslari. Kristaldagi bu E_k elektr maydoni elektrooptik effekt tufayli qutblanish konstantalari α_{ik} ni o'zgartiradi.

$$\Delta\alpha_{ij} = r_{ijk}E_k + R_{ijkl}E_kE_l, \quad (8)$$

